


O'ZBEK TILI USLUBIYATI VA NUTQ USLUBLARI TASNIFI



Tangriyeva Umida Allaberganova

*Urganch davlat universiteti akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tili uslubiyati, nutq uslublari tasnifi, ularning xususiyatlari, qo'llanishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: uslubiyat, uslubshunoslik, uslubiy xoslangan so'zlar, uslubiy betaraf so'zlar, so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, rasmiy uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, neytral leksika.

Til nutq sharoiti, qo'yilgan maqsad, qo'llanish doirasi, muloqot qiluvchilarning kimligiga qarab turlicha voqelanadi. Bunda bir tushuncha har xil ifodalar, bir fikr turli sintaktik qurilmalar bilan beriladi. Tilning bunday ko'rinishi *nutq uslublari* deyiladi. Nutq uslublari adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida qo'llaniladigan ko'rinishidir. Nutq uslublarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi *o'zbek tili uslubiyati* yoki *uslubshunoslik* deyiladi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan so'zlar va uslubiy betaraf so'zlarga bo`linadi.

O'zbek tilining ichki tuzilishinigina o'r ganish bizga bu til haqida to'la axborotni berolmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, *muhtaram*, *qimmatli*, *aziz* singari so'zlarni ma'lum shaxs bildiruvchi so'zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarda qo'shib ishlatish mumkin: *Muhtaram, Abrorjon Azizovich! Qimmatli aka, aziz opajon* kabi. Bunday birikmalarni yoningizda siz bilan oddiy holatda jonli muloqot qilib turgan kishilarga qo'llay olmaysiz. Agar shunday birikmalarni qo'llasangiz, noqulay ahvolga tushasiz.

Tilda so‘zlashuv, publitsistik, ilmiy, rasmiy hamda badiiy uslublar mavjud. Bulardan so‘zlashuv uslubi og‘zaki, qolgan barcha uslublar yozma va og‘zaki nutqqa xos. Masalan, ilmiy asar yoki ilmiy ma’ruza matni yozma nutqqa, ilmiy ma’ruzaning o‘zi og‘zaki nutqqa xos; badiiy uslubning ham og‘zaki (xalq og‘zaki ijodi), ham yozma ko‘rinishlari bor. Shuningdek, bu uslublarda qo‘llanuvchi birliklar so‘zlashuv (*anaqa*), kitobiy (*o’shal*) va betaraf (*bu, o’sha*) birliklarga bo‘linadi.

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo‘llanadigan so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlar (*binobarin, mazkur, qaroq, bayonnomा, nigoh, nota va hokazo*), bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlar esa uslubiy betaraf so‘zlar (*uy, havo, daftar, odam, ovqat, so‘zlamоq va hokazo*) sanaladi.

So‘zlashuv uslubi. Bu uslub kundalik hayotda, oilada, ko‘cha-ko‘yda, ish joylari va boshqa joylarda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubidir. So‘zlashuv uslubi adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi. Ma’lum adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilingan, tartibga solingan so‘zlashuv uslubi adabiy so‘zlashuv uslubi, adabiy til me’yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli esa oddiy so‘zlashuv uslubi sanaladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubida so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib axborot uchun eng kerakli so‘zлarni ishlataladi, qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to`ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so`raysiz:

- *Oltinchidan ikkita* (menga oltinchi qatordan ikkita chipta bering deb o`tirmaysiz).

Shuningdek, bu uslubda nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga bunga teskari bo‘lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo‘l qo‘yiladi. Oddiy so‘zlashuv uslubida gap bo‘laklarining tartibi ancha erkin bo‘ladi. Ba’zan shevaga xos so‘zlar, qo‘pol, dag‘al so‘zlar ham kuzatiladi, biroq ularni qo‘llash so‘zlovchining madaniy nutq sohibi emasligini ko‘rsatadi. So‘zlashuv uslubining har ikkala turi ko`pincha dialog shaklida

ro`yobga chiqadi. Ikki shaxsning o`zaro so`zlashuvi dialogik nutq sanaladi. Bunda so`zlar ko`pincha kinoya, piching, qochirimlarga boy bo`ladi. Bu uslubning yana bir o`ziga xos xususiyati erkinligidir. Bu uslubda kitobiy uslublarda qo`llaniladigan *taklif qildi, sobiq, masalan* kabi so`zlar o`rnida *chaqirdi, oldingi, burungi, misol uchun* kabi so`zlar ishlatiladi. Unli tovushlarni cho`zish (bo:r, ke:l), ayrim undosh tovushlarni cho`zib aytish (maza-mazza, haqi-haqqi) so`zlashuv uslubiga xosdir. Oddiy so`zlashuv uslubida so`z tartibi qoidaga nomuvofiq bo`lishi (*kecha yig`ilish bo`ldi məktəbda*); ko`chma, obrazli emotsional vositalar ko`proq qo`llanilishi (*g`ayrat qil, shalvirama; Shokirni qarang, og`zi qulog`ida*); dialogik shaklda bo`lib, to`liqsiz gap va imo-ishoraning ko`p ishlatilishi (*Kelyapti, Ketdimi? –Ha kabi*); takrorlar (*kelib-kelib shu gapni topdingmi?*); talaffuzda erkinlik *na'lat* (la'nat), *yangitdan* (yangidan), *opti* (olibdi) kabi) yaqqol namoyon bo`ladi. Oddiy so`zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo`llanadi.

So`zlashuv uslubida sodda gaplar, to`liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari - gazeta, jurnal, radio, televide niye, shuningdek, Oliy Majlis yig`inlarida, turli xil anjumanlarda qo`llaniladigan nutq uslubidir. Axborot berish, ta`sir etish, soddalik, ta`sirchanlik, tushunarilik, adabiy til me`yorlariga qat’iy amal qilish bu uslubning muhim xususiyatidir. Publitsistika davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televide niya orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo`layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Publitsistik uslubning ham og`zaki, ham yozma shakllari bor. Radio va televide niyadagi siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari bu uslubning og`zaki shakliga xos bo`lsa, ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag`ishlangan maqolalar, felyeton, murojaatnama, chaqiriq, deklaratsiyalar yozma shakliga xosdir. Bu uslubda hayotiy voqealarni dalillar oddiy shaklda keltirilmay, jo`shqin misralarda ifodalanadi, ulardan

umumiylar chiqariladi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi. Publitsistik uslubda ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol hamda hikmatli so'zlardan foydalaniladi, gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi, kesim buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi; darak, his-hayajon, ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan foydalaniladi. Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o'zi, masalan, gazeta, radio, televideniyada beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o'zida berilayotgan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir umumiylar belgi asosida publitsistik nutqning turli ko'rinishlari hisoblanadi.

Publitsistik uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lgani uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi. Shunga ko'ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlari (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatalishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoq dor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqealar va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiylar chiqariladi, muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi. Publitsistik nutqda ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan ham foydalaniladi.

Publitsistik nutq uslubiga misol:

- Vatan, istiqlol, ma'naviyat... Bu so'zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalovchi purhikmat so'zlardir. Agar insonda shu so'zlarning birortasi yo'q bo'lsa, hayotning qayeridir kemtik bo'lib turaveradi.

-Yer qish uyqusidan uyg'ondi. Bahorning mayin sabolari esa boshladi. Ariqlarning bo'yli yam-yashil maysalar bilan qoplandi, daraxtlar kurtak chiqarib, ifor isli nafarmon gullar bilan bezandi.

Ilmiy uslub. Bu uslub daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar – ta'rif-qoidalarga ega bo'lish, atamalarning keng qo'llanilishi bilan boshqa uslublardan

farq qiladi. Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub deyiladi.

Ilmiy uslub ikki guruhgaga bo'linadi: sof ilmiy uslub hamda ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilar uchun mo'ljallanadi. Shu bois bu uslubda fanning ma'lum sohasiga oid atamalar keng qo'llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo'ladi. Ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham, bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi.

Ilmiy uslub ilm-fanga oid fikrlarni bayon etishga mo'ljallangan. Bu uslubdagi matnlarda:

- sohaga oid terminlar faol qo'llanadi;
- ta'rif-qoidalar keltiriladi;
- bo'yoq dor birliklar, iboralar va maqollardan foydalanilmaydi;
- murakkab jumlalar, kirishlar va kiritmali qurilmalar ko'p uchraydi.

Ilmiy maqolalar, konferensiya tezislari, dissertatsiya, monografiya kabilar ilmiy uslubdagi matnlarga misol bo'la oladi. Ilmiy ma'lumotlar mutaxassis bo'limgaganlarga, ya'ni keng ommaga ilmiy-ommabop shaklda yetkaziladi. Ommabop nashrlardagi ilm-fanga oid maqolalar, bolalar ensiklopediyalari, maktab darsliklari shu shaklda yaratiladi.

Sof ilmiy uslubning o'zi ham fan tarmoqlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon etish kuchli bo'ladi.

Ilmiy uslub obrazlar, obrazli tasvirlar bilan emas, aniq ma'lumotlarning xolis, umumlashgan xususiyatlarini ta'riflash, tushunchalarga mos keladigan atamalar bilan ish ko'radi. Kitobxonning his-tuyg'ulariga emas, ongiga ta'sir etadi.

Ilmiy uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'z va iboralar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

Sof ilmiy uslubga misollar.

- Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchi bilan kelishiga boshqaruv deyiladi.

- Atomlar kimyoviy bo'linmaydigan zarralardir. Bir xil turdag'i atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi. Ularga vodorod va kisloroddan tashqari grafit, oltingugurt, barcha turdag'i metallar: temir, mis, magniy va boshqalar kiradi.

Ilmiy-ommabop uslubga misol:

...Tovushdoshlikning ma'no bilan singishib ketgan oliy namunalarini Navoiy asarlarida ko'rish mumkin. Masalan, shoir «Xamsa»sining Nizomiy Ganjaviyga bag'ishlangan qismlaridan birida:

Ganja ganjurikim chekib ko'p ranj,

Qo'y mish erdijahonda besh ganj, -deydi. Bu baytda «ishtiqoq» deb atalgan san'at ham bor. «Ishtiqoq» so'zining badiiy termin bo'lishiga uning grammatik ma'nosi asos bo'lgan. So'z yasalishi ishtiqoq deyiladi. Shunga asosan gapda bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirishni «ishtiqoq» deb ataganlar.

Rasmiy uslub muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirgan shakllarga ega nutq uslubidir.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo'linadi:

- sof qonunchilik uslubi;
- idoraviy-devonxona uslubi;
- diplomatik uslub.

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda amalga oshiriladi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo‘ladi. Bunday uslubda tilning bir qator vazifalari: axborot berish, da’vat etish, buyurish kabilar amalga oshadi. Masalan, ma’lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da’vat etish, axborot o‘z aksini topadi. Bu uslubga mansub har qaysi turning o‘ziga xos leksik, grammatic xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlarning kesimi III shaxs majhul nisbatdagi fe’llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma’lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning ham o‘ziga xos lug‘aviy va grammatic xususiyatlari mavjud: so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan ayrim qisqartma so‘zlar ishlatiladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Masalan, sud ishida jinoyat, hukm, qonun; maktab ish qog‘ozlarida maktab direktori, direktor o‘rinbosari, sinf rahbari kabi so‘z va birikmalar ishlatiladi.

Ariza, rezyume, tilxat, dalolatnoma, ishinchnomma kabilar, shuningdek, qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi. Har bir hujjat matni o‘ziga xos qolipi va maxsus so‘zlariga ega. Shu bois ularni yozishda namunaga yoki davlat tilida ish yuritishga oid kitoblarga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Rasmiy ish qog‘ozlarining sintaktik tuzilishi qat’iy qoliplarga bo‘ysunadi.

Tayyor nutq formulalari (shu asosida, shunga ko‘ra, ma’lum qilamizki,... biz, quyida imzo chekuvchilar,... ga asosan (muvofig),... uchun,... dan kelib chiqib,... sharti bilan,... berilsin,... taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo‘lishini, so‘zlamning bir ma’noda ishlatishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo‘lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllari qo’shma gap turlarining keng qo’llanilishini talab qiladi, til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Badiiy uslub ma’lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta’sir etuvchi nutq uslubidir. Bu

uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga o‘zbek shevalariga, kasb-hunarga oid leksik birliklar, bugungi kundalik iste’moldan chiqib ketgan tarixiy so‘zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatilishi mumkin. Badiiy uslub orqali ro‘yobga chiqqan nutq ma’lum voqeahodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifa bajarish)dan tashqari o‘quvchiga ta’sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. Bu uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida chegaralangan. U inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi, shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so‘zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo‘lishi mumkin.

Badiiy uslub tilning bor imkoniyatini namoyish qiladigan uslub hisoblanadi. Bu uslubdagi matnlarda:

- ko‘chma ma’noli so‘zlar, bo‘yoqdor birliklar faol qo’llanadi;
- inversiya, parallellik, tавtologiya (ortiqcha takrorlar)dan ta’sirchanlikni oshirishda foydalaniladi;
- ritorik so‘roqlar hamda his-hayajon gaplardan foydalaniladi;
- eskirgan so‘zlardan aniq maqsadlarda foydalanilishi mumkin;
- muallifning yangi so‘z va ma’nolar ijod qilishi kuzatiladi.

Nasriy va she’riy badiiy asarlar, insholar shu uslubda yoziladi. Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta’sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo’llashi yoki o’zi yangilarini yaratishi mumkin bo’ladi. Shuning uchun bu uslubda yozuvchilar mavjud so‘zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o‘ziga xos so‘z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon etishga xizmat qiladi.

Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko’lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga

ko'ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir.

A.Qahhorning «O'jar» hikoyasidan olingan parchada badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini ko`rishimiz mumkin.

- Hozir, hozir! - dedi. - Suyar! Ho Suyar! Bu yoqqa chiq, o'g'llim! E, yotganmiding! Mayli, bu yoqqa o'tir. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shadrin katta yozuvchimi?

Suyar goh otasiga, goh Zargarovga qarar va hayron edi.

- Yo'q, siz savolni noto'g'ri qo'ydingiz, - dedi Zargarov. - Bunday: Saltikov ilgari o`lganmi, Shadrin?

- Ikkovi bitta odam-ku! - dedi Suyar nima ekanini bilolmay.

Zargarov qiyqirib kului, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o'rnidan turib o'yinga tushdi. Qutbiddinov do'q urdi:

- Saltikov bilan Shadrin-a? Kim aytdi senga?

- O'zim bilaman, kitobda bor.

- Kitobda bor? Shaxmatni ko'proq o'yna, itvachcha! Qutbiddinov bola bechorani ko'p urishdi... Suyar yig'lab yubordi... Anchadan keyin Suyar kattakon bir kitob ko'tarib chiqdi.

- Mana, - dedi portretni ko'rsatib, - mana, Saltikov-Shadrin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Nurmanov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Akademik litseyning 1-bosqich talabalari uchun darslik. T.: "Ilm Ziyo", 2010
2. A.Q.G`ulomov. Ona tili o`qitish prinsiplari va metodlari. – T.: "O`qituvchi", 1992.
3. Erkaboyeva N. O`zbek tilidan ma'ruzalar to`plami. – T.: "Akademnashr", 2016.
4. O.Roziqov va boshqalar. Ona tili didaktikasi. –T.: "Yangi asr avlod", 2005.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
6. WWW.ZiyoNet.uz.
7. WWW. Ta'lif.uz.